

O'zbekistonga kelayotganlar uchun yangilangan karantin cheklolari

2021 10 Dekabr

“Omikron” koronavirusining yangi shtammining tarqalishi munosabati bilan koronavirusga qarshi kurash bo'yicha Respublika komissiyasi O'zbekistonga Avstraliya, Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Misr, Isroil, Italiya, Niderlandiya va Chexiyadan kelgan yo'lovchilar 10 kunlik karantinni uyda yoki o'z hisoblaridan mehmonxonada o'tkazishlari haqida qaror qabul qildi.

O'zbekistonga kelgan har bir yo'lovchi parvozdan 72 soat oldin koronavirusga topshirilgan PZR-testning manfiy natijasi to'g'risidagi hujjatga ega bo'lishi kerak. Aks holda, yo'lovchilar aeroport, vokzal va chegara o'tish punktlarida koronavirusni aniqlash uchun ekspress-test topshirishga majbur bo'ladilar.

Ayni vaqtda O'zbekiston Botsvana, Gonkong, Zimbabve, Lesoto, Madagaskar, Mozambik, Namibiya, Tanzaniya, Esvatini va Janubiy Afrika bilan havo qatnovlarini to'xtatdi. So'nggi 14 kun ichida yuqorida qayd etilgan mamlakatlarga tashrif buyurgan yo'lovchilar O'zbekistonga kirishga ruxsat etilmaydi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways